



YO'L HARAKATI QOIDALARI VA ULARNING ZAMONAVIY
AHAMIYATI

Mavzusidagi ilmiy-maqola.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
OLTIARIQ SANOAT VA TEXNOLOGIYALAR TEKNİKUMI



Farg'onan – 2025



YO'L HARAKATI QOIDALARI VA ULARNING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Qutbiddinov Muhriddin Zuhriddin o'g'li

Oltiariq sanoat va texnologiyalar texnikumi (Farg'onan viloyati, Oltiariq tumani)

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yo'l harakati qoidalari fanining mazmuni, asosiy maqsad va vazifalari, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi roli, o'quvchilarga beriladigan asosiy bilimlar, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar orqali yo'l harakati madaniyatini oshirish masalalari keng yoritilgan. Maqola umumiy o'rta va kasb-hunar ta'lif muassasalarida ushbu fandan dars berayotgan o'qituvchilar va o'quvchilar uchun metodik ko'mak sifatida tavsiya etiladi.

ABSTRACT: This article extensively covers the content, main goals and objectives of the subject of traffic rules, its role in ensuring road safety, the basic knowledge that students should be given, as well as the issues of improving traffic culture through modern technologies. The article is recommended as a methodological aid for teachers and students teaching this subject in general secondary and vocational educational institutions.

Kalit so'zlar: yo'l harakati xavfsizligi, huquqiy me'yor, yo'l belgilari, harakat qatnashchilari, avtomatlashtirish, svetofor tizimi, videokuzatuv.

Yo'l harakati qoidalari fanining asosiy maqsadlari:

- O'quvchilarda yo'l harakati qoidalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Ularni yo'l harakatida ishtirok etish tartiblari bilan tanishtirish;
- Yo'l harakati xavfsizligi borasida ongli munosabatni tarbiyalash;
- Hayotiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni o'rgatish;
- Fuqarolik javobgarligi va xavfsizlik madaniyatini mustahkamlash.



Harakat xavfsizligi va yo‘l harakati qoidalari har bir davlatda, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlarda ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi. Ko‘plab halokatlarning oldini olish va yo‘llarda xavfsiz harakatni ta’minlash maqsadida qoidalari ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada yo‘l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi haqida batafsil to‘xtalamiz, ularning hayotdagi ahamiyatini ko‘rsatib o‘tamiz.

Avtomobil yo‘llarida chorrahalar turli sathlarda kesishishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda 6-7 sathlarda kesishgan chorrahalarni ko‘rishimiz mumkin. Bugun Toshkent shahrida 3 sathli chorrahali kesishmalar mavjud bo‘lib, asosan bunday chorrahalarda transport vositalari harakatlanishda bir-biriga qisman ta’sir qiladi. Avtomobil yo‘llarining kesishish va tutashish joylarida maksimal ravishda harakat xavfsizligini ta’minlash zarur. Bu esa ularning bir-biriga nisbatan qulay burchak ostida joylashganiga, kesishuvchi yoki tutashuvchi yo‘llardagi harakat miqdoriga, ko‘rinish masofasiga, texnik vositalar bilan jihozlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, harakatni tashkil etish sxemasini tuzishda shu sanab o‘tilgan omillar hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Kesishuvchi yoki tutashuvchi yo‘llardagi harakat miqdorining hajmiga nisbatan ular bir yoki har xil sathda joylashtirilishi mumkin.


SHNQ 2.05.02-07 tavsiyalariga ko‘ra, avtomobil yo‘llarining turli sathda kesishishi va tutashishini asosan quyidagi hollarda qabul qilish zarur:

I^a darajali yo‘llarda - barcha darajali yo‘llar bilan, I^b va I^a darajali yo‘llarda II va III darajali yo‘llar bilan;


III darajali yo‘llarning o‘zaro kesishish joylarida kelajakdagi jami harakat miqdori bir sutkada (ikkala kesishuvchi yoki qo‘siluvchi yo‘llarda) 8000 engil avtomobilga keltirilgan qiymatdan oshsa.

Avtomobil yo‘llarida ko‘pchilik hollarda tartibsiz ravishda bir sathdagi chorrahalar va tutashmalar uchraydi. Harakatni tashkil etishda birinchi navbatda yo‘l bo‘ylab joylashgan chorrahalarni (u oddiyimi, qisman kanallashtirilganmi yoki boshqacha turdagи bo‘lishidan qat‘iy nazar) quyidagi me’yoriy ko‘rsatkichlarga keltirish darkor. I^a va I^b toifali avtomobil yo‘llarida kesishishlar yoki tutashishlar soni juda kam bo‘lishi kerak.

Ushbu amaliy ishida bir sathli chorrahalarda transport vositalarining harakat miqdorini yo'nalishlar bo'yicha o'zgarishini aniqlash vazifasi berilgan bo'lib, bunda har bir yo'nalishda harakatlarayotgan transport vositalarining miqdori va tarkibini aniqlab tahlil qilib chiqamiz.



1-rasm. Amir Temur – Osiyo ko'chalari kesishmasi. N₁, N₂, ..., N₁₅, N₁₆ - avtomobillar harakat jadalligi



2-rasm. Bir sathda kesishgan chorrahadagi yo'nalishlar.

Yo'l harakati qoidalari birinchi navbatda inson hayotini saqlashga, yo'l ishtirokchilari o'rtasida tartib o'rnatishga qaratilgan. Ular asosan ikki turga bo'linadi: transport vositalari uchun va piyodalar uchun belgilangan qoidalari. Har bir yo'l ishtirokchisi, ya'ni haydovchilar, piyodalar, velosipedchilar va boshqa transport vositalari egalari, o'zlarining harakatlari orqali yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga mas'uldirlar.

Haydovchilar uchun qoidalari

Haydovchilarga yo'l harakati qoidalariiga rioya qilish, yo'lni to'g'ri va xavfsiz boshqarish majburiyati yuklanadi. Ular quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak:

- *Tezlikni cheklash*: Har bir yo'l turi va ob-havo sharoitiga mos ravishda maksimal tezlik belgilangan bo'lib, haydovchilar bu tezlikni oshirishdan saqlanishlari kerak. Tezlikni oshirish avtohalokat xavfini orttiradi.

- *Yo'l belgilari va sinalariga rioya qilish*: Yo'l belgilari har bir haydovchiga qaysi yo'lda harakatlanishni, qachon to'xtashni, qachon burilish qilishni ko'rsatadi. Har qanday signal, trafik chiroqlari yoki harakatlanish yo'nalishlari belgilari bilan tanishish va ularga rioya qilish haydovchining burchidir.



- *Yog‘ingarchilik va qishki sharoitlarda ehtiyyotkorlik:* Yomg‘ir, qor yoki muzli yo‘llarda haydashda tezlikni kamaytirish va yo‘l holatini hisobga olish muhimdir.

Piyodalar Uchun Qoidalalar

Piyodalar yo‘l harakatida muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak:

- *Yo‘lni kesishda e’tiborli bo‘lish:* Piyodalar faqat piyodalar yo‘lagidan (zebra yo‘li) yoki signalizatsiya qilingan o‘tkazgichlardan o‘tishlari lozim.
- *Yo‘lni kesish paytida tezlikni hisobga olish:* Piyodalar yo‘lni kesishdan oldin atrofni diqqat bilan kuzatib, tezlikni to‘g‘ri baholashlari kerak.

Harakat xavfsizligini ta’minlash

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda faqat qoidalarga rioya qilish emas, balki yo‘l harakati ishtirokchilarining ehtiyyotkorligi va ongli harakatlari ham katta ahamiyatga ega.

Harakat xavfsizligini ta’minlashda har bir avtomobilning texnik holati va uning to‘g‘ri ishlashi muhimdir. Haydovchining avtomobilini muntazam ravishda texnik ko‘rikdan o‘tkazish, yoritish tizimi va tormozlarni tekshirish orqali avariyalarning oldini olish mumkin.

Xavfsizlik kamarini taqish — haydovchilar va yo‘lovchilar uchun yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda eng muhim omillardan biridir. Statistikaga ko‘ra, xavfsizlik kamaridan foydalanish halokatlarning oldini olishda 40% ga qadar samarali hisoblanadi.

Haydovchilar alkogol, giyohvand moddalardan yoki ba’zi dori-darmonlardan foydalanganda avtomobilni boshqarish qobiliyatini yo‘qotishlari mumkin. Shuning uchun yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash uchun haydovchilar alkogol ichimliklar yoki giyohvand moddalar iste’mol qilmasliklari lozim.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash uchun yo‘l infratuzilmasi ham katta rol o‘ynaydi. Yangi yo‘llarni qurish, eski yo‘llarni yangilash, kengaytirish va belgilarning to‘g‘ri joylashtirilishi harakat xavfsizligini oshiradi. O‘zbekiston kabi



mamlakatlarda yo‘l tarmog‘ining kengayishi bilan yo‘l harakati qoidalaring modernizatsiya qilinishi va rivojlantirilishi kerak.

Yo‘l harakati xavfsizligi masalalari faqat qonunlar va qoidalarga amal qilish bilan chegaralanmaydi. Bu jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Xavfsiz yo‘l harakati uchun har bir fuqaro, tashkilotlar, davlat idoralari va turli sohalar o‘rtasidagi hamkorlik juda muhimdir. Ta’lim tizimi orqali yoshlarni harakat xavfsizligi haqida tarbiyalash, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali keng jamoatchilikni bu borada ogoh qilish zarur.

Yo‘l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi – har bir insonning hayotini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Haydovchilar, piyodalar va boshqa ishtirokchilar o‘z harakatlarini ongli ravishda boshqarib, xavfsiz harakat qilishlari kerak. Yo‘l harakati qoidalariiga rioya qilish va xavfsizlikni ta’minlash orqali biz jamiyatimizda avtohalokatlar sonini kamaytirish va har bir fuqaroning sog‘lig‘ini saqlashga erishishimiz mumkin.

Xulosa

Yo‘l harakati qoidalari fanini chuqur o‘qitish orqali yosh avlodga xavfsizlik madaniyatini singdirish, ular ongida mas’uliyat hissini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Shu bois, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Fan darslarida amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish;
- Mahalliy IIB Yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazish;
- “Yo‘l harakati kuni”, viktorinalar, tanlovlardan uyushtirish;
- Ta’lim muassasasi atrofida yo‘l belgilaringin o‘rnatalishi va ularni o‘rgatish;
- Ota-onalar ishtirokida seminar va suhbatlar o‘tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Yo‘l harakati qoidalari (2023-yil tahriri).
3. Maktab o‘quv dasturlari va darsliklari.
4. Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi II V tavsiyalari.